



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

**SANOAT TARMOQLARI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA TEXNOLOGIK
ESKIRISH VA MODERNIZATSIYA MUAMMOLARI**

**ПРОБЛЕМЫ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ИЗНОСА И МОДЕРНИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ
ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ**

**PROBLEMS OF TECHNOLOGICAL WEAR AND MODERNIZATION IN THE
TRANSFORMATION OF INDUSTRIAL SECTORS**

Saidova Mavluda Jumaboevna

Andijon mashinasozlik instituti “Iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri masalalari kompleks tahlil qilingan. Global raqobatning kuchayishi, Industry 4.0 konsepsiyasining kengayishi va ishlab chiqarish kapitalining eskirishi sharoitida modernizatsiya strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot doirasida modernizatsiyaning iqtisodiy ta’siri o‘rganish tizimli yondoshuvni talab etayotgani ko‘rsatib berilgan.

Калит сўзлар: sanoat korxonasi, texnologik modernizatsiya, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, raqobatbardoshlik, Industry 4.0, innovatsiya.

В статье комплексно проанализированы вопросы влияния процессов технологической модернизации на экономическую эффективность промышленных предприятий. В условиях усиления глобальной конкуренции, расширения концепции Industry 4.0, а также морального и физического износа производственного капитала модернизация приобретает стратегическое значение.

Ключевые слова: промышленное предприятие, технологическая модернизация, экономическая эффективность, инвестиции, конкурентоспособность, Industry 4.0, инновации, производительность труда, энергоэффективность.

This article provides a comprehensive analysis of the impact of technological modernization processes on the economic efficiency of industrial enterprises. In the context of increasing global competition, the expansion of the Industry 4.0 concept, and the moral and physical depreciation of production capital, modernization is becoming a strategic development factor.

Keywords: industrial enterprise, technological modernization, economic efficiency, investment, competitiveness, Industry 4.0, innovation, labor productivity, energy efficiency.

Sanoat milliy iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i bo‘lib, mehnat resurslari, xomashyo va energiyani ishlab chiqarish, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni yaratish orqali iqtisodiy faoliyatni ta’minlaydi. Shuningdek, sanoat mamlakat mudofaa qobiliyatining moddiy asosi va barqarorlikni ta’minlovchi muhim tarmoq hisoblanadi. Barcha mamlakatlar iqtisodiy integratsiya va tabiiy hamda inson resurslaridan oqilona foydalanishga erishish maqsadida sanoatni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo‘jalik jihatdan birlashishi, ya’ni iqtisodiy integratsiyada o‘z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Mamlakatimizda mustaqillikning afzalliklari va davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning yetakchi o‘rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va ularning yechimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026 yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishlardan ikkinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish ekanini ta’kidlab, sanoatni modernizatsiya qilishni strategik yo‘nalish sifatida belgilab berdi. Bu yerda asosiy e’tibor avtomatizatsiya va raqamlashtirishni ta’minlashga qaratildi. “Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlarga dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish – kelgusida islohotlarimizning bosh mezon bo‘lishi shart” – dedi davlat rahbari [1].

Sanoat uchun fan-texnikaning uzluksiz taraqqiyoti va ishlab chiqarishning yutuqlari bilan qurollanish darajasini o‘shishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish, elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish va kimyolashtirish sohasidagi ilg‘or yutuqlardan keng foydalaniladi.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarishning bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo‘lmish viloyatlarda tabiiy boyliklardan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkonini yaratadi.

Mamlakat sanoati rivojlanishida ijobiy ko‘rsatkichlar qo‘lga kiritilishiga eng avvalo mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolinishi va yangi tarmoqlar strategiyasining yaratilishi asos bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun‘iy intellekt asosidagi ishlab chiqarish modellari jahon iqtisodiyotida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) o‘zining “The Future of Manufacturing” hisobotida sanoatning raqamli transformatsiyasi global raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omili ekanini ta’kidlaydi. Hisobotga ko‘ra, Industry 4.0 texnologiyalarini joriy qilmagan korxonalar 5–7 yil ichida bozor ulushini yo‘qotish xavfiga ega [2].

Jahon banki (World Bank) esa texnologik modernizatsiyaga investitsiya kiritish mehnat unumdorligini o‘rtacha 30–40% ga oshirish imkonini beradi deb hisoblaydi [3]. Shuningdek, ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat korxonalarining modernizatsiyaga investitsiya kiritish darajasi past. Chunki uzoq muddatli arzon kreditlar kamligi, texnologik import xarajatlari yuqoriligi, valyuta xavfi mavjudligi va boshqa omillar ta’siri kattaligicha qolmoqda. Texnologik eskirish energiya samaradorligi muammosini keltirib chiqaradi, ekologik talablarga javob bermaslikka sabab bo‘ladi, raqamli transformatsiyani cheklaydi, mehnat unumdorligini pasaytiradi. Ya’ni, bu muammo tizimli va kompleks xarakterga ega. Bu muammo hal qilinmasa, qolgan barcha islohotlar to‘liq samara bermaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosiy vositalarning eskirishi, moliyaviy resurslar cheklanganligi va boshqaruv samaradorligining pastligi modernizatsiya jarayonlarini sekinlashtirmoqda. Bu mehnat unumdorligini pasayishi, energiya sarfini oshishi, sifat standartlariga javob bera olmaslikka olib keladi. Umuman, iqtisodiyotni raqobatdosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarini texnologik transformatsiya qilish mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda [1].

Hozirgi kunda zamonaviy sanoat korxonalari avtomatlashtirilgan liniyalar, sun‘iy intellekt, robotlashtirilgan ishlab chiqarishni qo‘llayapti. Eski texnologiya bilan ishlayotgan korxonalar esa tannarx bo‘yicha 15–25% orqada qolmoqda.

Innovatsion rivojlanish nazariyasida texnologik yangilanish iqtisodiy o‘shishning asosiy drayveri sifatida qaraladi. Yozef Shumpeter innovatsiyani “ijodiy vayronkorlik” jarayoni deb ta’riflab, iqtisodiy tizimni yangilashda uning hal qiluvchi rolini asoslab bergan [4].

Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisobotlarida innovatsion investitsiyalar yuqori bo‘lgan mamlakatlarda mehnat unumdorligi o‘shishi barqaror xarakterga ega ekani qayd etilgan [5].

Industry 4.0 kontseptsiyasi, Klaus Shvab tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, avtomatlashtirish va kiber-fizik tizimlar integratsiyasini nazarda tutadi [6].

Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency) ma'lumotlariga ko'ra esa, sanoat sektori jahon energiya iste'molining 37% ni tashkil qiladi [7]. Energiya samaradorligi past bo'lgan ishlab chiqarish quvvatlari xarajatlarni sezilarli oshiradi.

Sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Modernizatsiya orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, raqobatbardoshlik ortadi va eksport salohiyati kengayadi. Shu bois, modernizatsiyani strategik sanoat siyosati doirasida qo'llab-quvvatlash zarur.

Sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya jarayonlari turli sharoitlarda turlicha yuz berganligi sababli, uning tarmoq va mintaqa xususiyatlari tobora yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Texnologik modernizatsiyaning ana shu jarayonlarini o'rganish, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish zarur. Bizning nazarimizda, sanoat korxonalarining ana shu shartlar bazasida shakllanish xususiyatlarini ochib berish, korxonalariga bozor sharoitida samarali ishlash yo'riqlarini ko'rsatib berish alohida ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Ayni paytda milliy iqtisodiyotimizda sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani yo'lga qo'yish tajribalarini o'rganish va umumlashtirish ham talab etiladi.

Mintaqa darajasida sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani tashkil etish, shakllantirish va tartibga solish mexanizmi aniq bir xo'jalik yurituvchi subyektlar xatti – harakatlarining xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib nihoyatda o'ziga xosdir. Xo'jalik yurituvchi subyektning bozorda tutgan o'rni, uning potentsiallari, ko'rsatayotgan xizmat turlari xususiyatlari va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Shunga muvofiq hamma uchun bir xil rivojlanish strategiyasi amal qilmaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda hududiy sanoatni rivojlantirishdagi kamchiliklar keskin tanqid qilindi. Uch yilda respublika sanoati 21 foiz o'sgan bo'lsa-da, qator tumanlarda bu ko'rsatkich 10 foizga ham yetmagani, ayrim hududlarda kredit resurslari va investitsiyalarning o'sishi sanoat o'sishiga mutanosib ta'sir ko'rsatmayotgani ko'rsatib o'tildi[8]. Kichik va o'rta korxonalarining yillik energiya iste'moli kattaligi hisobga olinib, bu toifadagi korxonalarda energiya samaradorlik bo'yicha yangicha tizim joriy etilishi va uch yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi. 2026 yilda kichik va o'rta korxonalarda 100 million kub metr gaz va 500 million kilovatt-soat elektrni tejash choralarini ko'rish muhimligi qayd etildi[8].

Yuqoridagilar umumlashtirib shuni aytish mumkinki, strategik rivojlanishni tashkil etishda bir qator umumiy tamoyillarni belgilash, amalga oshirish mumkin va shartdir.

Hozirgi sharoitda mintaqada sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya shakllanishiga asos bo'luvchi nazariy muammolarning o'z yechimlarini topishi muhimligi aniq yo'nalishda ilmiy mavzuni belgilab beradi.

Bizningcha, tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekiston sharoitida, uning turli mintaqalari, xususan Andijon viloyati sharoitida sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani yo'lga qo'yish, uning shakllanishining muhitga bog'liqligidan kelib chiqqan holda xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, amaliyotni tahlil qilish orqali mazkur mexanizmni takomillashtirish va undan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bu izlanishlarning ilmiy maqsadi sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani turli mintaqalarda joriy etishning o'ziga xosliklarini o'rganish va ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Ilmiy tadqiqotlarning maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqotda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiy islohotlar sharoitida sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyaning ijtimoiy – iqtisodiy mohiyatini ochib berish;
- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya strategik kontseptsiyasining hududiy rivojlanishga bog'liqligini ko'rsatib berish;
- mintaqada sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani tashkil etish va amaliyotda qo'llash yo'llarini asoslash;
- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya amaliyoti shakllanishi darajasini o'rganish va tahlil qilish;

- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyadan samarali foydalanish mexanizmini aniqlash;

- rivojlanish bosqichida sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya tizimini tartibga keltirish;

- sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyaning mintaqaviy sharoitda ustuvor rivojlanish strategiyasini tanlash va shakllantirish yo‘llarini taklif etish.

Sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya rivojlanishini ilmiy tadqiq etish birinchidan, nazariy va ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, unda sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani nazariy, metodologik, ilmiy asoslarini ochib berishga harakat qilinadi. O‘zbekistonda bu soha rivojlanishining ilmiy yechimlari ustida tadqiqot olib boriladi. Ikkinchidan, amaliy ahamiyat kasb etadi, ya’ni sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyani yo‘lga qo‘ygan, uning samaradorligini amalda ko‘rsata olgan korxonalar, jamoalar tajribasi o‘rganiladi, umumlashtiriladi va taklif – mulohazalar beriladi. Mintaqada sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya tizimini shakllantirish ijtimoiy – iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash masalalariga bevosita bog‘liqdir.

Olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar yakunida esa respublika milliy iqtisodiyoti, xususan Andijon viloyati iqtisodiyotining hozirgi holati va rivojlanishi ustida kompleks tizimli ilmiy tadqiqot olib borishga va uni takomillashtirishga hamda iqtisodiy islohotlarni rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiyadan samarali foydalanishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/uz/lists/view/8834>
2. World Economic Forum. The Future of Manufacturing and Production. <https://www.weforum.org/about/the-fourth-industrial-revolution-by-klaus-schwab/>
3. World Bank. World Development Report: Digital Dividends. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2016>
4. Schumpeter, J. (1934). The Theory of Economic Development. <https://cruel.org/books/hy/shortschumpeter/SchumpeterTheoryofEconDev.pdf>
5. OECD. OECD Productivity and Innovation Outlook. <https://www.oecd.org/innovation/oecd-productivity-and-innovation-outlook/>
6. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. https://law.unimelb.edu.au/_data/assets/pdf_file/0005/3385454/Schwab-The_Fourth_Industrial_Revolution_Klaus_S.pdf
7. International Energy Agency. Energy Efficiency 2023 Report. <https://www.iea.org/reports/energy-efficiency-2023>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini ta’minlash bo‘yicha asosiy vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish 13.02.2026/ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/uz/lists/view/8942>